

## Loyihani tayyorlash- yangilik yaratish - ishlab chiqarish bog'liqligi

2021-yil 19-mart kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish vazirligi boshqarma boshlig'i Shuxrat Otajanov tomonidan "Davlat grantlari tanlovi uchun loyihalarni shakllantirish, loyihalarga qo'yiladigan talablar, tanlovlarida ishtiroq etish tartiblari" mavzusidagi seminar-trening o'tkazildi. Seminar-trening boshlashdan oldin Innovatsion Rivojlanish vazirligi boshqarma boshlig'i Shuxrat Otajanov Institut ihtidorli talabalari tomonidan yaratilgan yangi ishlanmalar ko'rgazmasi bilan tanishdi. Jumladan Green house, Smart water tower, Hydropower, Supervisor, Energy exporter, Hydro energy, Fresh water, Nasos stantsiyalarda drenaj tizimida Xoll datchik effekti yordamida suv satxini nazorat qilish, Nasos agregatlarini bir tugma orqali boshqarish, Tomchilab sug'orish tizimini avtomatlashtirish, Suv minorasini avtomatik boshqarish qurilmalari bo'yicha talaba yoshlar taqdimot qilishdi. Shundan so'ng seminar-trening o'tkazish konferentsiya zaliga tashrif qilindi.



Seminar-treningda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) xamda TIQXMMIning Buxoro va Qarshi filiali professor - o'qituvchilari, yosh olimlar, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar (izlanuvchilar), olima ayollar qatnashdi. Seminar-treningni o'tkazishdan asosiy maqsad yosh olimlarni xamda institut professor-o'qituvchilarini davlat (fundamental, amaliy, innovatsiya, yosh olimlar) grantlari tanlovi uchun loyihalarni shakllantirish, loyihalarga qo'yiladigan talablar, tanlovlarida ishtirok etish tartiblari bilan yaqindan tanishishdan iborat bo'lib to'liq belgilangan maqsadga erishildi.



Seminar-trening Offline va Online tarzda o'tkazildi. Offline shaklda institutning videokonferentsiya zalida o'tkazilish jarayonida boshqarma boshlig'i Shuxrat Otajonov tomonidan qilingan taqdimotda berilgan ma'lumotlar hamda savollar va javoblar natijasida dolzarb bo'lganligi yaqqol namayon bo'ldi. Mazkur tashkil qilingan seminar - trening natijasida, institut professor-o'qituvchilarini, yosh olimlar davlat grantlari tanlovida qatnashish bo'yicha loyiha xujjatlarini shakllantirish yuzasidan aniq ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Fundamental, amaliy, innovatsion va yosh olimlar loyihalariga qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risida tushunchalarga ega bo'lishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**